



# Qurilish ishlari

## RAQAMLAR:


- Qurilish-montaj ishlari hajmi - 21196,9 mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi **-31,4 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar **-39,0 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi **-29,6 foiz**


Joriy yilning yanvar-avgust oylari bo'yicha Respublikada 21196,9 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil etdi va 2016 yilning yanvar-avgustiga nisbatan 5,5 foiz punktga kamaydi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 6664,3 mlrd.so'mni yoki 108,5 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,5 foiz punktga oshdi.

## 2017 yil yanvar-avgust

Ko'pgina viloyatlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Andijon viloyatida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 56,0 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati 73,7 foizni, mos ravishda, Qashqadaryo viloyatida - 350,8 mlrd.so'm yoki 76,9 foizni, Navoiy viloyatida - 163,7 mlrd.so'm yoki 88,9 foizni tashkil etdi.






**2017 yilning yanvar-avgustida hududlar kesimida qurilish ishlari  
quyidagicha ifodalanadi:**

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
			<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>21196,9</b>	<b>103,5</b>	<b>8767,4</b>	<b>111,9</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	877,0	103,5	449,6	104,8
viloyatlar:				
Andijon	1257,6	101,3	625,7	109,1
Buxoro	1639,9	103,6	588,0	113,8
Jizzax	739,8	100,2	418,3	116,0
Qashqadaryo	1719,0	101,7	903,1	116,0
Navoiy	789,7	100,8	358,0	113,4
Namangan	989,7	105,2	512,5	116,6
Samarqand	1445,6	83,2	720,3	117,2
Surxondaryo	1142,8	101,2	595,1	110,0
Sirdaryo	355,1	110,9	255,8	123,3
Toshkent	967,0	98,7	432,5	104,6
Farg'ona	1464,7	104,4	873,3	113,5
Xorazm	858,2	100,2	442,7	109,2
Toshkent sh.	3343,7	101,2	1592,5	108,2



# Mulkchilik shakllari

## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 20288,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,7 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foiz punktiga o'sdi.

Joriy davrda Andijon viloyati bo'yicha jami qurilish ishlari xajmida nodavlat sektorining ulushi 96,2 foizni yoki 2016 yilning mos davriga nisbatan 1,0 foizga ko'paydi, mos ravishda bu ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida 95,5 foizni (1,0 foiz punktga), Toshkent viloyatida 94,8 foizni (3,4 foiz punktga), Navoiy viloyatida 86,4 foizni (3,6 foiz punktga) tashkil qildi.

Davlat statistika qo'mitasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

**J.Saipov**  
(0371) 230-80-56